




**2021- yil yanvar-iyun oylarida
Toshkent viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi**

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 273,6** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 024,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,3 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

9 273,6 mlrd.
so'm

115,3 %

• Xizmatlar hajmi

2 024,3 mlrd.
so'mga

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyun oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **40,4** mlrd. so'mga o'sdi va **1 608,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **61,2** mlrd. so'mga o'sgan va **1 422,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.


2021- yilning may oyiga nisbatan joriy yilning iyun oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **60,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning may oyiga nisbatan 2020- yilning iyun oyida xizmatlar hajmi **175,4** mlrd. so'mga o'sgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning II diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 608,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning II diskret choragiga nisbatan (**1 422,0** mlrd. so'm) hajmi **186,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil II diskret choragining hajmi, 2019- yil shu davriga nisbatan 294,8 mlrd. so'mga oshgan.

2021- yil I diskret choragining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2021- yil II diskret oyining hajmi **158,5** mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning I diskret choragi hajmiga nisbatan, 2020- yilning II diskret oyi hajmi **593,0** mlrd. so'mga oshgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|---|----------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 9 273,6 | 115,3 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 290,1 | 135,3 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 336,7 | 114,5 |
| Transport xizmatlari | 2 170,4 | 113,2 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 2 030,1 | 110,7 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 343,1 | 106,7 |
| Savdo xizmatlari | 3 105,0 | 110,1 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 291,6 | 131,1 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 252,4 | 127,8 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 199,5 | 143,6 |
| Ijara xizmatlari | 285,9 | 124,2 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 190,5 | 119,9 |
| Shaxsiy xizmatlar | 261,2 | 122,9 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 332,6 | 124,0 |
| Boshqa xizmatlar | 214,6 | 120,1 |


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **33,5 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,1 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **34,5 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,7 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (**43,6 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**35,3 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**31,1 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**27,8 %**), moliyaviy xizmatlar (**27,1 %**), me'morchilik sohasidagi xizmatlarda (**24,0 %**), shaxsiy xizmatlarda (**22,9 %**) hamda boshqa xizmatlarda (**20,1 %**) qayd etildi.

Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**6,7 %**) da qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **33,5** % ni tashkil etib, bu esa **3 105,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **2 502,4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **34,5** % iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2 502,4

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

3 105,0

102,2

O'sish sur'ati, % da

110,1

2020- y. yanvar-iyun



2021- y. yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **68,6 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 336,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1 110,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **14,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **15,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **226,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **14,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **134,7** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **5,1 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **89,1 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **2,1 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **8,8 %**.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **290,1** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **135,3** % ni tashkil etgan.


Taqqoslash uchun:

2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turi hajmi **210,8** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **2,9** % iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **134,0** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifati ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **252,4** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **127,8 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **187,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida o'sish **9,3 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **67,6** mlrd. so'mga ortgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyun



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,9** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **88,0** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-iyun



2020- y.
Yanvar-iyun



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|--|----------------------|----------------------|--------------|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| Toshkent viloyati *) | 9 273,6 | 115,3 | 102,1 |
| <i>shaharlar :</i> | | | |
| Nurafshon | 386,0 | 113,9 | 114,4 |
| Olmaliq | 648,6 | 116,3 | 97,5 |
| Angren | 583,4 | 110,9 | 86,0 |
| Bekobod | 433,4 | 114,0 | 95,8 |
| Ohangaron | 186,3 | 116,0 | 100,3 |
| Chirchiq | 766,1 | 112,8 | 101,8 |
| Yangiyo'l | 422,7 | 117,8 | 100,4 |
| <i>tumanlar :</i> | | | |
| Oqqo'rg'on | 246,6 | 115,5 | 99,8 |
| Ohangaron | 134,7 | 111,3 | 100,8 |
| Bekobod | 264,1 | 111,1 | 100,2 |
| Bo'stonliq | 572,0 | 119,2 | 100,7 |
| Bo'ka | 254,6 | 115,6 | 100,2 |
| Quyichirchiq | 183,0 | 116,1 | 101,4 |

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|---|----------------------|----------------------|----------|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| Zangiota | 970,6 | 122,1 | 101,0 |
| Yuqori Chirchiq | 310,4 | 118,5 | 100,6 |
| Qibray | 914,1 | 111,3 | 100,8 |
| Parkent | 362,0 | 118,7 | 101,1 |
| Piskent | 141,7 | 115,2 | 101,0 |
| O'rta Chirchiq | 302,9 | 111,3 | 86,9 |
| Chinoz | 258,6 | 111,2 | 100,4 |
| Yangiyo'l | 425,9 | 113,1 | 101,6 |
| Toshkent | 505,9 | 119,9 | 100,3 |

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 105,9
ming so'm

Hajmning
o'sishi

649,6
ming so'mga

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 105,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 456,3** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,7** % da qayd etilgan.



114,0 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- iyul holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

30 662 birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

4 745 birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

118,3 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


62,0 %

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,0 %**, sanoat **18,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,6 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **7,8 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,8 %** ni, sanoat **19,0 %** ni, qurilish **7,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**45,3** %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **11,9** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,8** % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1** % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,6** % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **70,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **57,3 %** ga to'g'ri keldi.

